

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rne.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abdovakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abdovohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллович	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva , Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rne va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	




Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari.....	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich, PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
Ermatov Musojalil Komilovich, kafedra dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich, katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi, asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna, PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari.....	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna, PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna, Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li, tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon, PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari.....	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida.....	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna, i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li, dekan o'rinbosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich, dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich, magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li, mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна, PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov, kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich, i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna, kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna, kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtrish ko'rsatkichlari	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya outsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbonova Shaxrinnoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jaloliddinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжахон Суюнович , ассистент кафедры	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муютдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках	326
Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойбергенович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан	339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития.....	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna

Oriental Universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, Iqtisodiyot va turizm kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining muhim mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Yer resurslari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, qishloq xo'jaligi, sanoat, rivojlantirish va boshqa tarmoqlar uchun asos yaratadi. Cheklangan yer maydonlari va iqtisodiy bosimning kuchayishi sharoitida yer resurslarini samarali boshqarish va ulardan foydalanish barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: Yer resurslari, yer munosabatlari, huquqiy-institutsional asoslar, qishloq xo'jaligi, yer egaliklari, agrosanoat klasterlari.

Abstract: This work is devoted to the study of an important topic of economic and legal aspects of the use of land resources. Land resources play a significant role in the development of the economy, providing the basis for agriculture, industry, development and other industries. In conditions of limited land areas and growing economic pressure, effective management of land resources and their use is becoming a key factor for sustainable development.

Key words: Land resources, land relations, organizational and legal bases, agriculture, land holdings, agro-industrial clusters.

Annotatsiya: Данная работа посвящена исследованию важной темы экономических и правовых аспектов использования земельных ресурсов. Земельные ресурсы играют существенную роль в развитии экономики, обеспечивая основу для сельского хозяйства, промышленности, застройки и других отраслей. В контексте ограниченности земельных площадей и растущего экономического давления, эффективное управление и использование земельных ресурсов становится ключевым фактором для устойчивого развития.

Kiyuchevye slova: Земельные ресурсы, земельные отношения, организационно-правовые основы, сельское хозяйство, земельные владения, агропромышленные кластеры.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy munosabatlarning tobora rivojlanishi har bir mamlakatda turli sohalarning barqaror rivojlanib borishi uchun tegishli huquqiy-institutsional asoslarni shakllantirish va ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini uyg'otadi. Jumladan, qishloq xo'jaligi munosabatlari bozor iqtisodiyoti elementlarining tobora kirib borishi ushbu sohada ham huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali soha rivoji uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratilishini taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlari, jumladan qishloq xo'jaligida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning huquqiy-institutsional asoslarini shakllantirishga qaratilgan chuqur tarkibiy islohotlarga amalga oshirilib kelinmoqda. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslarining shakllanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1989-yil 15-avgustdagi "Qishloq joylardagi tomorqa yerlarini ko'paytirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan, qishloq aholisiga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni va yakka tartibda uy-joy qurilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 400 ming gektar sug'oriladigan yer uchastkasi va 2,5 mln.dan ortiq oilaga tomorqa maydonlari ajratib berilishi bilan boshlangan¹, deb aytish maqsadga muvofiq. Shu bilan birgalikda, 1990-yilda O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda yer uchastkalariga bo'lgan egalik huquqlarini kengaytirish, yer resurslaridan pullik tamoyil asosida foydalanish kabi muhim o'zgarishlarni sodir bo'lishiga olib

1 Алтiev А. С. Механизмы регулирования системы использования земельных ресурсов: Монография. – Т.: Фан, 2018. – 112 с.



keldi². Ushbu ikki me'yoriy hujjatlar mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning birinchi bosqichi sifatida fundamental asoslarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan, deb hisoblaymiz.

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizning agrar iqtisodiyotga chuqur ixtisoslashganligini inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga moslashtirish bosqichi boshlandi. Ushbu bosqich 1991-1994-yillarni o'z ichiga olgan holda, mazkur davrda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrdagi "Dexqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikadagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni orqali mamlakat qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yanada rivojlantirishning huquqiy asosi yaratilib, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni rivojlantirishga qo'shimcha 200 ming gektarga yaqin yer uchastkalari ajratildi³;
- 1993-yilda O'zbekiston Respublikasining "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, ushbu me'yoriy hujjatga muvofiq, 1994 yildan boshlab, aholi yashash punktlari va sanoat toifalaridagi, 1995-yildan boshlab esa qishloq va o'rmon xo'jaliklari toifalaridagi yerlardan foydalanishga haq to'lash tamoyili amaliyotga joriy etildi⁴;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-1009-son Farmoni va 1994-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 575-sonli qarorlari asosida quyidagi ikki Nizomlar tasdiqlandi: yer maydonlari ajratish bo'yicha doimiy ishlovchi maxsus komissiya to'g'risidagi Nizom; Qoraqalpog'iston Respublikasida foydalanilmayotgan yerlarni hamda past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlarini fuqarolarga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilishlari uchun, tajriba tariqasida berish haqidagi Nizom⁵.

Shu bilan birgalikda mazkur bosqichning o'ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi dxhqon va fermer xo'jaliklarining yer resurslaridan foydalanish bo'yicha munosabatlar tizimi bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan to'yintirilganligida o'z aksini topadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sobiq Ittifoq davrida mamlakatimiz hududida qishloq xo'jaligida yer resurslaridan nooqilona foydalanishi natijasida ayrim hududlardagi qishloq xo'jaligi faoliyatini yurituvchi iqtisodiy subyektlar uchun ekin ekishda yerlarning kuchsizlinishi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanilishi natijasida yerlarning texnik xususiyatlaridagi salbiy oqibatlarni bartaraf etish, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan har bir gektar maydondan olinadigan hosil hajmini oshirishning huquqiy asoslari 1995–2008-yillarda rivojlana boshladi. Jumladan, mazkur bosqichda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish borasidagi O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"⁶, "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida"gi Nizom⁷ kabi muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

"Yer kodeksi"ga mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning quyidagi tamoyillari ajratib ko'rsatildi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo sug'oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash;

2 Алтиев А. С. Экономический механизм либерализации системы использования земельных ресурсов: Монография. – Т.: Фан, 2009. – 168 с.

3 Алтиев А. С. Перспективы создания и развития рынка земли в Узбекистане. Проблемы современной экономики. № 1. 2007. – с. 165–166.

4 Maxsudov M. D. Yerdan foydalanishni tartibga solish yuzasidan yer islohoti. Scientific Progress. Vol. 2. Issue 1. 2021. – pp. 234–246.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-1009-sonli Farmoni, 24.11.1994-y. <https://lex.uz/uz/docs/197514> ; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 575-sonli qarori, 29.11.1994-y. <https://lex.uz/docs/708371>

6 O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" (O'zbekiston Respublikasining 30.04.1998-yil 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/acts/152653>

7 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 496-sonli qarori, 23.12.2000-y. <https://nrm.uz/content/f>



- yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash;
- yerlarning holati haqidagi axborotning to'liq bo'lishini hamda undan erkin foydalanishga yo'l qo'yilishini ta'minlash⁸.

Shu bilan birgalikda, ushbu me'yoriy hujjatda mamlakatimizda yer fondi yerlaridan foydalanishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi guruhlar ajratib ko'rsatildi:

- 1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;
- 2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari – shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;
- 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar;
- 6) o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;
- 7) suv fondi yerlari – suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;
- 8) zaxira yerlar⁹.

Mazkur me'yoriy hujjatda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda yerlarni rayonlashtirish orqali hududlarning tabiiy sharoitlarni va qishloq xo'jaligi o'simliklari agrobiologik talablarini hisobga olgan holda bo'linishi belgilab berilgan¹⁰.

Tadqiqot metodikasi. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishga bag'ishlangan iqtisodiy va huquqiy qarashlar bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni tahdil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, qi-yosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

TAHLILI VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda bozor mexanizmlarining joriy etilishi, o'z navbatida, ularning holatini baholash zaruriyatini keltirib chiqardi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi Qonunida Yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobot har yili tayyorlanadi hamda butun mamlakat va ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yerlarning miqdor va sifat holati hamda ularning bahosi, yerlarning toifalarga bo'linishi, tarmoqlar, yer uchastkalarining egalari, yer uchastkasidan foydalanuvchilar, yer uchastkasi ijarachilari, mulkdorlari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni va yer kadastriga oid boshqa axborotni o'z ichiga olishi belgilangan. Jumladan, ushbu me'yoriy hujjatda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash maqsadida "tuproq bonitirovkasi" tushunchasiga alohida e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra, "Tuproq bonitirovkasi – qishloq xo'jaligi ekinlari agroteknikasi o'r-tacha darajada bo'lganidagi tuproq sifati hamda tabiiy unumdorlik quvvatiga beriladigan qiyosiy baho. Tuproq bonitirovkasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning keyingi qiymat bahosini chiqarish, mulkiy paylarning miqdorini aniqlash, yer tuzishni amalga oshirish va yerlardan oqilona, samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun asosdir"¹¹.

8 O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" (O'zbekiston Respublikasining 30.04.1998-yil 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/acts/152653>

9 O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" (O'zbekiston Respublikasining 30.04.1998-yil 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/acts/152653>

10 O'sha manba

11 O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi 666-I-son Qonuni, 28.08.1998-y. <https://lex.uz/acts/17036>



2000-yilga kelib “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida”gi Nizomning tasdiqlanishi qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishda yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv), yer resurslarining texnik xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash, baholash va prognoz qilish kabi quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi:

- yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara-ekologiya komplekslarining holati;
- yerlar unumdorligining o‘zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasi (aridizatsiya va cho‘llanishi, suv, irrigatsiya va shamol eroziyasi, chirindi miqdori o‘zgarishi, tuproq tarkibining o‘zgarishi, ohakligi, begona o‘t bosganligi, sho‘rlanganligi, qishloq xo‘jaligi yerlarining o‘t bosganligi, yerlarning pestitsidlar, og‘ir metallar, radionuklidlar va boshqa toksik moddalar, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi)ga ta‘sir qiluvchi jarayonlar (omillar);
- tabiiy ozuqabop o‘tlar qoplami holatining o‘zgarishi (o‘simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to‘yimligining o‘zgarishi) bilan bog‘liq jarayonlar;
- daryolar qirg‘oqlarining, Orol dengizi, ko‘llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika inshootlarining holati;
- jarliklar va o‘pqnalar, o‘pirilishlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari, “degishlar”, karst, yer cho‘kishi, boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo‘lgan jarayonlar;
- aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go‘ngxonalar, axlatxonalar, yonilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar omborlari, toksik sanoat chiqindilari va radioaktiv materiallar ko‘milgan joylar, shuningdek boshqa sanoat obyektlari yerlarining holati.¹²

Jumladan, mazkur Nizomga muvofiq, Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va yer fondi toifalariga muvofiq bo‘lgan quyidagi kichik tizimlarga bo‘linadi:

- qishloq xo‘jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;
- aholi punktlari yerlari monitoringi;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsion maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- o‘rmon fondi yerlari monitoringi;
- suv fondi yerlari monitoringi;
- zaxira yerlar monitoringi.

Shuningdek, Nizomda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yer monitoringi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa toifadagi yerlarda Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan yagona uslub bo‘yicha olib borilishi belgilab qo‘yilgan¹³.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-son Farmonining qabul qilinishi natijasida barcha turdagi qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishning ijara shakliga o‘tildi¹⁴.

Ushbu bosqichning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri bu “2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi”ning qabul qilinishi natijasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklariga ustuvorlik qaratilishi, mazkur iqtisodiy subyektlar uchun qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha tegishli imtiyozlarning joriy etilishi bilan izohlanadi¹⁵.

12 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 496-sonli qarori, 23.12.2000-y. <https://nrm.uz/content/f>

13 O‘sha manba.

14 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-sonli farmoni, 24.03.2003-y. <https://lex.uz/docs/170168>

15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-3342-sonli farmoni, 27.10.2003-y. <https://lex.uz/ru/docs/173117>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2004–2006-yillarda



2009-2016-yillar mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish bosqichi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu bosqichning ilk kunlaridanoq mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida "Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari to'g'risida"gi Nizom¹⁶, "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom¹⁷, "Qishloq aholi punktlari yerlaridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom¹⁸, "Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom¹⁹lar qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish borasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida chuqur tarkibiy islohotlar namoyon bo'lishi bilan birgalikda, yer egalarining yerga nisbatan mulkchilik huquqlari takomillashtirildi.

2017-yildan to bugungi kunga qadar mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni yetishtirishga ixtisoslashtirish, yer resurslaridan foydalanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish bosqichi sifatida baholini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, ushbu bosqichda hukumatning tegishli qaror va me'yoriy hujjatlari asosida qishloq xo'jaligi sohasida qator institutsional o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Jumladan:

- o'simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyati tashkil etildi²⁰;
- qishloq va suv xo'jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimi tubdan takomillashtirilib²¹, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi²² va O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi²³ vazirliklari tashkil etildi;
- O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzurida Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi²⁴ shakllantirildi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi²⁵ faoliyati yo'lga qo'yildi;
- Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi²⁶ tashkil etildi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi²⁷ shakllantirildi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Agrosanoat majmuyi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi²⁸ faoliyati yo'lga qo'yildi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivoj-

fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 476-son qarori, 30.10.2003-y. <https://lex.uz/docs/246715#917835>

- 16 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 51-sonli qarori, 01.03.2011-y. <https://lex.uz/docs/1754519>
- 17 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori, 18.08.2014-y. <https://lex.uz/docs/2448660>
- 18 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq aholi punktlari yerlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 301-sonli qarori, 30.10.2014-y. <https://lex.uz/ru/docs/2491016>
- 19 O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining "Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 7.11.2013 yilda №-2521-ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/2264811>
- 20 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5174-sonli Farmoni, 30.08.2017 y. <https://lex.uz/docs/3322443>
- 21 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5418-sonli Farmoni, 17.04.2018-y. <https://lex.uz/docs/3687601>
- 22 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3671-sonli Qarori 17.04.2018-y. <https://lex.uz/docs/3688054>
- 23 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3672-sonli Qarori 17.04.2018-y. <https://lex.uz/docs/3687875>
- 24 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-sonli Qarori, 03.07.2018-y. <https://lex.uz/docs/3812729>
- 25 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomini tasdiqlash haqida"gi 533-sonli Qarori, 12.07.2018-y. <https://nrm.uz/contentf>
- 26 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 940-sonli Qarori, 21.11.2018-y. <https://lex.uz/docs/4072901>
- 27 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4161-sonli Qarori, 05.02.2019-y. <https://lex.uz/docs/4278984>
- 28 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4241-sonli Qarori, 15.03.2019-y. <https://lex.uz/docs/4242801>



lantirish agentligi²⁹ tashkil etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi³⁰;
- O'zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako'chilikni rivojlantirish qo'mitasi³¹ faoliyati yo'lga qo'yildi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi³² tuzildi.
- mamlakatimizda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, jumladan, ushbu jarayondagi turli yoqotishlar hajmini qisqartirish va mahsulotlarni isrof qilishni oldini olishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratildi³³;
- qishloq xo'jaligi sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish, sohada innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etishni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmini shakllantirish maqsadida "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi" faoliyati yo'lga qo'yildi³⁴.

Ushbu bosqichda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini uzoq muddatli istiqobolda barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini darajasini muntazam oshirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, agrar sohadagi yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, mamlakat qishloq xo'jaligida qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohadagi kooperatsiya munosabatlarini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish va kadrlar salohiyatini oshirish imkonini beruvchi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"³⁵, "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021–2025-yillarda ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi"³⁶ va "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi"³⁷ amaliyotga tatbiq etildi.

Jumladan, mazkur bosqichda amalga oshirilgan islohotlarning yana bir muhim jihati respublika hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash bo'yicha ixtisoslashuvni chuqurlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratildi. Natijasida respublika bo'yicha 55 ta tuman meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirildi³⁸. Jumladan, bu turdagi ixtisoslashtirilgan hududlarga quyidagilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sirdaryo viloyatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga tarkibida sellyuloza mavjud bo'lgan ekinlar va almashlab ekishda qatnashadigan boshqa turdagi ekinlarni o'rnatilgan tartibda yetishtirish va qayta ishlashni to'liq siklini yaratishni nazarda tutuvchi agrosanoat klasteri tashkil etildi³⁹;
- Jizzax viloyatida go'sht-sut mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan agroklasteri tashkil etildi⁴⁰;

29 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 481-sonli Qarori, 11.06.2019-y. <https://lex.uz/docs/4372100>

30 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4254-sonli Qarori, 28.03.2019-y. <https://lex.uz/docs/4258732>

31 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako'chilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4817-sonli Qarori, 02.09.2020-y. <https://lex.uz/docs/4979915>

32 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-sonli Qarori, 03.06.2021-y. <https://lex.uz/docs/5443032>

33 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yo'qotishlarini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 574-sonli Qarori, 17.09.2021-y. <https://lex.uz/uz/docs/5639133>

34 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-58-sonli Qarori, 22.12.2021-y. <https://lex.uz/uz/docs/5790013>

35 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni, 23.10.2019-y. <https://www.lex.uz/docs/4567334>

36 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-sonli Farmoni, 03.02.2021-y. <https://lex.uz/docs/5262596>

37 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-sonli farmoni, 17.06.2019-y. <https://lex.uz/docs/4378526#4379643>

38 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4709-sonli Qarori, 11.05.2020-y. <https://lex.uz/docs/4810300>

39 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 iyundagi "Sirdaryo viloyatida agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №511-sonli Qarori, 18.06.2019-y. <https://nrm.uz/contentf>

40 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jizzax viloyatida go'sht-sut mahsulotlari yetishtirish yo'nalishidagi agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №619 sonli Qarori, 23.07.2019-y. <https://nrm.uz/contentf>



- Andijon⁴¹ va Farg'ona⁴² viloyatlarining qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda hududlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ixtisoslashtirish ishlari amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlari komponentlari bilan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga mos ravishda to'ldirilib borilmoqda. Ushbu holat uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishning o'ziga xos milliy konsepsiyalarining shakllanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-1009-sonli farmoni, 24.11.1994-y. <https://lex.uz/uz/docs/197514>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 575-sonli qarori, 29.11.1994-y. <https://lex.uz/docs/708371>
2. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" (O'zbekiston Respublikasining 30.04.1998-yil 598-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/acts/152653>
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi 666-I-sonli Qonuni, 28.08.1998-y. <https://lex.uz/acts/17036>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli farmoni, 24.03.2003-y. <https://lex.uz/docs/170168>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-3342-sonli farmoni, 27.10.2003-y. <https://lex.uz/ru/docs/173117>; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 476-sonli qarori, 30.10.2003-y. <https://lex.uz/docs/246715#917835>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 51-sonli qarori, 01.03.2011-y. <https://lex.uz/docs/1754519>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori, 18.08.2014-y. <https://lex.uz/docs/2448660>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq aholi punktlari yerlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 301-sonli qarori, 30.10.2014-y. <https://lex.uz/ru/docs/2491016>
9. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasining "Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 7.11.2013-yilda №-2521-ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/2264811>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 496-sonli qarori, 23.12.2000-y. <https://nrm.uz/contentf?doc=356760>
11. Алтиев А. С. Механизмы регулирования системы использования земельных ресурсов: Монография. – Т.: Фан, 2018. – 112 с.
12. Алтиев А. С. Перспективы создания и развития рынка земли в Узбекистане. Проблемы современной экономики. № 1. 2007. – с. 165–166
13. Алтиев А. С. Экономический механизм либерализации системы использования земельных ресурсов: Монография. – Т.: Фан, 2009. – 168 с.
14. Maxsudov M. D. Yerdan foydalanishni tartibga solish yuzasidan yer islohoti. Scientific Progress. Vol. 2. Issue 1. 2021. – pp. 234–246.
15. Tashmatov R. Hududlarda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017. 10 b. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/6_R_Tashmatov.pdf.
16. Hasanov Sh. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. i.f.d. diss. 2017. – 224 b.
17. Weber M. The Agrarian History of the Ancient World / Weber. – Moscow: Canon C-Press, 2001. 429 p.

41 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Andijon viloyati hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 708-sonli Qarori, 11.11.2020-y. <https://lex.uz/docs/5091238>

42 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Farg'ona viloyati hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 709-sonli Qarori, 11.11.2020-y.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.



"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.